

## QISHLOQ XO'JALIGIDA MEHNAT RESURSLARINING IQTISODIY HOLATI VA MEHNATNI MOTIVATSIYALASH

K.T.Sultamuratov<sup>1</sup> G.E.Tajenova<sup>1</sup>

1. Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Qoraqalpog'iston, O'zbekiston.

Correspondence: Tajenova Gubaxar Esbosinovna. Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, PhD, dotsent, Qoraqalpog'iston, O'zbekiston. e-mail: tajenova@gmail.com.

Received: 29 May 2023; Accepted: 07 June 2023; Published: 16 June 2023.

**Annotatsiya.** Maqolada asosan respublika qishloq xo'jaligida mehnat resurslarini iqtisodiy holatini yaxshilash, qishloq xo'jaligida mehnat resurslarining rivojlanishini shakllantirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash sharoitida mehnat resurslaridan samarali foydalanish uslubiyatlarini aniqlash va takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mehnat resurslaridan foydalanish samorodorigini oshirish omillarini foydalanishni takomillashtirish masalalari haqida ayitib o'tilgan

**Kalt so'zlar.** raqamli iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, strategiya, mehnat resurslari, ish haqi, motivatsiya, iqtisodiy bandlik, mehnatni rag'barlantirish.

### Kirish

Raqamli iqtisodiyot va texnologiyalar tadbiriq etilayotgan hozirgi sharoitda qishloq xo'jaligini innovatsiyon rivojlantirish startetegiyasini yangilash, mehnat bozorini rivojlantirish, zamanaoviy kasblarni keng joriy etish, inson kapitalidan samarali foydalanish, milliy kadrlar tayorlash tizimini shakllantirish va ushbu yo'nalishlarda xorijiy davlatlarning ilg'or tajriybalaridan samarali masadli foydalanish asosida qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan foydalanish samorodorigini oshirish bugungi kunning eng muhim dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

### Materiallar va usullar:

Respublika aholisining demografik ko'rsatkishlari ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy tahlil davrida respublika umumiy aholisi 16,4 % ga ko'paygan bo'lsa, qishloq aholisining ko'payishi shahar aholisining ko'payishiga nisbatan 3,1 % ga ko'p bo'lgan. Respublikada mehnatga layoqatli yoshdagilar 30,2 % ga, iqtisodiyotda band bo'lganlar

16,4 % ga ko'paygan.

Mehnatga layoqatli yoshdagilarning shahar aholisi orasida o'sishi shu davr ishida. mehnatga layoqatli kattalar bo'yisha ko'rsatkich 10,9 va 43,4 % ni tashkile tgan. Iqtisodiyotda band bo'lgan ayollar 2021 yil 18,3 foyizni, davlat muassasalarida, 81,7 foyizni tashkil etgan .

### Natijalar:

qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash sharoitida mehnat resurslaridan samarali foydalanish uslubiyatlarini aniqlash va takomillashtirish bo'yisha tavsiyalar ishlab chiqish; mehnat resurslaridan samarali foydalanishga ta'sir etuvshi omillarni aniqlash va baholash; qishloq xo'jaligida mehnatni rag'barlantirish mexanizmini ishlab chiqish; qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mehnat resurslaridan foydalanish samorodorigini oshirish omillarini foydalanishni takomillashtirish hisobalandi

### Natijalarni muhokama qilish:

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida band bo'lgan mehnat resurslari iqtisodiy tahlil davrida 13,4 foyizga ko'paygan bo'lsa, shu davr ichida fermer xo'jalikalrida mehnat resurslari bandligi 26,4 foyizga kamaygan, dehxon xo'jalikalrida bu ko'rsatkich 10,1 foyizga kamaygan. Ishsizlar ham 2,1 barobariga ko'payib, ishsizlik darajasi 9,3 foyizni tashkil etgan. Iqtisodiy tahlil davrida aholining ko'payishi ming kishi hisobiga 22,1 promilledan 23,3 promillega ko'paygan, o'lim esa shu davr 5,5 promilledan 4,7 promillega kamaygan .

Aholining tabiiy ko'payishi 17,2 foyizdan 17,8 foyizga ortgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yisha qishloq xo'jaligida band bo'lgan mehnat resurslari iqtisodiy tahlil davrida 12,7 foyizga ko'paygan bo'lsa, fermer xo'jalikalri bo'yisha bu ko'rsatkich 26,8 foyizga kamaygan, dehxon xo'jaliklarida esaca 11,9 foyizga ko'paygan. Ammo ishsizlik darajasi o'zgarmagan holda 4,1 foyizni tashkile tgan .

Respublikada iqtisodiy faoliyat bo'yisha keltirilgan bandlik bo'yisha ma'lumotlar (2-jadval) tahlilining ko'rsatichisha, iqtisodiy tahlil davrida доимий doyimiy aholining iqtisodiy bandligi 16,4

foyizga ko'paygan. Shu bilan birga, moddiy boyliklar ishlab chiqarish bilan bog'lik bo'lmagan iqtisodiyot tarmoqlarida iqtisodiy bandlikning 67,0 foyizi moddiy ne'matlar ishlab chiqarish sohalari bilan bog'lik bo'lmagan. Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatishda bandlikning o'sishi 2021 yilda 26,1 foyizni tashkil etgan bo'lib, qanday xizmatlar ko'rsatilgani biz ushin mavhumdir. Davlat statistika qo'mitasi mehnat resurslari iqtisodiy bandligi bo'yisha ma'lumotlarni aniq sohalarda bo'yisha berganda, tadqiqod olib borish jarayonida aniq maqsadli takliflar berish mumkin bo'ladi.

1-jadval

Respublika iqtisodiyotida bandlikning o'sish darajas

Ko'rsatkishlar yillar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2016 yil 2022 yilga nisbatan, %
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	11628,4	12223,8	12818,4	13298,4	13520,3	13273,1	13541,1	116,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	580,8	600,2	621,0	638,6	647,2	705,2	711,2	122,5
<i>viloyatlar:</i>								
Andijon	1112,0	1176,3	1245,0	1297,7	1319,2	1266,8	1284,5	115,5
Buxoro	768,1	804,4	823,2	825,3	826,5	810,1	797,1	103,8
Jizzax	381,6	402,9	428,4	454,8	468,2	486,6	536,2	140,5
Qashqadaryo	971,6	1036,6	1108,5	1180,9	1218,0	1222,0	1220,1	125,6
Navoyii	407,9	418,5	420,6	421,8	422,4	407,7	412,7	101,2
Namangan	815,3	872,1	937,3	1001,4	1034,9	1051,5	1104,6	135,5
Samarkand	1229,9	1314,4	1402,5	1485,1	1523,1	1463,3	1455,8	118,4
Surxandaryo	784,4	843,0	901,5	961,5	991,7	984,0	1024,3	130,6
Sirdaryo	319,9	334,8	349,6	352,4	353,1	354,2	350,1	109,4
Toshkent	1155,4	1215,5	1272,4	1287,6	1289,6	1227,7	1232,9	106,7
Fergana	1340,4	1398,8	1462,8	1508,3	1525,7	1451,0	1492,5	111,3
Xorezm	606,7	643,4	678,6	713,3	729,3	711,8	736,6	121,4
Toshkent.sh	1153,8	1162,2	1166,5	1169,7	1171,4	1131,2	1182,5	102,5

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish subektlarida mehnat resurslaridan foydalanish darajasini aniqlash eng dolzarb muammo bo'lib, biznes orqali ishchi hisobiga ishlab chiqarilgan.

Shu bilan birga mexanizator-texniklar va sug'orish ishlari bilan shig'illanuvchi muroblarning mehnatlari dehxonshilikda yo'qori darajada hosil olishdagi rollarini inkor etmagan holda ularning mehnatlarini motivatsiya qilish manfaatdorligini ta'myinlab turish zarur. Iqtisodiy tahlil asosida qishloq xo'jaligida mehnat resurslariga ta'sir etuvshi omillar 2-jadvalda guruhlashtirilgan.

2-jadval

Mehnat resurslaridan foydalanishra ta'sir etuvshi omillar

Texnik agrotexnik omillar	Tashkiliy omillar	Tarkibiy va tabiiy omillar	Ijtimoiy-iqtisodiy omillar
Agrotexnologiyani rivojlantirish. Yangi chidamli serhosil o'simlik navlarini yaratish, yuqori umumli texnikalaridan samarali foydalanish. Chorv aushun yangi zatdor mollarni yaratish mexanizatsiyalashtirish, mehnatning qo'llanishi fond qaytimining o'sishi, mehnatni eleketr energiyasi bilan ta'myinlash.	Ishlab chiqarishni takomillashtirishni erlarni shudigarlash va ekin ekishga tayorlash. Mahalliy va mineral o'g'itlarni ekin maydonlariga chiqarish. Zarur bo'lgan urug'liklar, moylash, yonilg'ilar bilan ta'myinlash. Mehnatni tashkil etish, uning normalarini belgilash va o'lishach.	Dehxonshilik tarkibini aniqlash. Chorvashilik tarkibini aniqlash. Parrandachilik tarkibini aniqlash. Mahsulot ishlab chiqarish hajmini anilqash. Mahsulot sifatiga e'tibor berish.	Ishlab chiqarishni tashkiliy va iqtisodiy tahlil qilish. Ishlab chiqarishda mehnat qilish va dam olish uchun zarur bo'lgan infratuzilmalar. Mehnat xodimlarini yashash uchun ijtimoiy sharoyitlar yaratish. Mehnat haqining ish haqiga mos kelishi. Mehnatni motivatsiyalash omillari: moddiy natural, ma'naviy, ijtimoiy.

Shuning uchun inson omilining mohiyatini qo'yidagisha baholadik: inson omili ishchi kuchini ishlab chiqarish vositalar bilan bog'liklikni ijtimoiy-iqtisodiy tomondan qanday holatni ifodalagan holda qishloq xo'jaligida band bo'lgan mehnat resurslarining ish beruvchi sub'ektlar o'rtasidagi

munosobatlarning o'z-aro bog'likligini ifodalaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoyitida hozirgi davr talabiga javob bera oladigan mehnatni motivatsiyalash ko'rsatkishlaridan foydalanish zarur. Shuni aytib o'tish lozimki, respublika fermer xo'jaliklarida band bo'lgan mehnat resurslarining oyli ish haqilari ularning ijtimoiy-iqtisodiy talablarini qondira olmaydi.

Agarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishga yollangan ishchi o'ratsha ish haqi 675,0 ming so'mga teng bo'lsa, u dollarda oyiga 47 dollarni tashkil etadi, kuniga esa 1,95 dollarni tashkil etadi. Rivojlangan davlatlarda soatiga bu ko'rsatkich Germaniyada 43 dollarni, Frantsiyada 45 dollarni, AQShda 35 dollarni, Yaponiyada 32 dollarni, Braziliyada esa 10 dollarni tashkil etmoqda. Bu rivojlangan davlatlarda moddiy va nomoddiy rag'barlantirish usullaridan foydalanish mehnat resurslarini motivatsiyalashning yuqori darajada bo'lishi ishlab chiqarish samorodorigining o'sib borishini ta'minlamoqda. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda mehnat resurslaridan samarali foydalanishni tashkile tishning motivatsiya usullarini har bir xo'jalik mustaqil ishlab chiqishi lozim. Lekin mehnatni motivatsiyalashtirish uchun umumiy uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish zarur.

#### **Xulosalar:**

1. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sub'ektlarining faoliyatlarini tabiiy-iqlim sharoyitlariga bog'likligi, ularni mehnat resurslarini ishlab chiqarishga jalb qilish bilan sifatli ishlab chiqarishni yakuniy natijalari bilan bog'likligini aniqlash murakkab muammo hisoblanadi. Ularni moddiy rag'barlantirish va ishga bo'lgan e'tiborsizlikka qarshi choralar ko'rishning chegaralanganligi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda ualrning mehnatalrini amplitifikatsiyalash zarurligini ko'rsatadi.

2. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida band bo'lgan mehnat resurslarining malakalarini oshirishda bozor iqtisodiyotini o'rganishga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni takomillashtirishga, marketing yer kadastr, yer islohatlari, yep, mol-mulkni baholash, mehnatni samarali tashkil etish, kadrlar tayorlashni takomillashtirish, qishloqda ijtimoiy holatni yaxshilab borish, mavjud ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish, investitsiya va innovatsiyon faoliyatga e'tibor berishlari lozim.

3. Mehnat resurslaridan qishloq xo'jaligida foydalanishning xususiyatlaridan biri ulardan mavsumiy foydalanish hisoblanib, oqibatida mehnat taqsimotini yil davomida noteks taqsimlanishi hisoblanadi.

4. Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida mehnat resurslari samorodorigini oshirish uchun hozirgi bozor sharoyitida ularga to'lanayotgan ish haqialrni yakuniy mahsulot ishlab chiqarish hajmiga qarab to'lashga o'tishi lozim hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojatnomasi. / Xalq so'zi, 2021 yil, 1-4 b.

2. Volgin N.A. Ekonomika truda: sotsiyalno trudovix otnosheniya: Uchebnoe posobie - M.; Ekzamen, 2004 g. 206-735 st.,

3. Genkin B.M. Ekonomika I sotsyologiya truda: Uchebnik dlay Vuzov – M.; Norma: Infra – M. 2007, 448 s.,

4. Djuraev A.M. Formirovanie I razvitie sotsiyalnoy infratrakturi sela v usloviyax perexoda k rinku. Avtoreferat. Tashkent. 1993, 49 s.,

5. Berdimuratov U.S. Mehnat resurslaridan samarali foydalanishning optimal chora tadbirlari // "Qishloq va suv xo'jaligida zamanaoviy nuommalar" maqolalar to'plami. Toshkent 2016 yil 15-16 aprel. B. 501-504